

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON
ILLOVA TO'RPLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.R.To'xtasinov, M.P.Azimova

Kartoshka ildizi va uning atrofi tuproqlarida uchraydigan fitonematodalar sistematik tahlili va turlar xilma-xilligi 103

I.I.Zokirov, A.A.Yoqubov

Kuzgi tunlamning qishloq xo'jalik ekinlariga ta'siri va O'zbekistonda samarali kurash choralar 106

B.A.Abduvealiyev, I.I.Zokirov

Gelmintlarning uy parrandalari bilan biotsenotik aloqalari 109

T.K.Ortikov, U.B.Shodmonov

Janubiy Farg'ona tuproqlarining mikrobiologik faolligi va unga turli omillarning ta'siri 115

A.A.Ma'rupo

Farg'ona vodiysi Uzunmo'ylov qo'ng'izlarining taksonomik reviziysi va zamonaliviy tur tarkibi 118

S.Sh.Axmadjonova

Kolorado qo'ng'izi (Coleoptera, Chrysomelidae)ning ayrim biologik xususiyatlari 122

V.Y.Isaqov, X.V.Qoraboyev

Tuproq va Indigofera tinctoria L. organlarida og'ir metallarning tarqalish va to'planish xususiyatlari 125

GEOGRAFIYA**M.N.Dehqonboyeva, X.A.Abduvealiyev**

Yer sig'imi tushunchasidan aholi zichligida foydalanish 132

X.Sh.Djo'rabyeva

Farg'ona vodiysida an'anaviy suvdan foydalanish madaniyatining shakllanishiga ekologo-gyeografik omillarni ta'siri 137

N.O'.Komilova

Xo'jalik yuritishdagi qadimgi tizimning etnoekologik mohiyati 141

A.A.Xamidov

Farg'ona vodiysining landshaftlarini shakllanishiga litogen tuzilish va rel'efning ta'siri 148

QISHHLOQ XO'JALIGI**Q.A.Davronov, D.Q.Ibragimova, R.A.Iminchayev, Sh.A.Kuramatova**

"Avangard start", "Gulliver" "Antikolorad maks" preparatlarini g'o'za parvarishida qo'llash usullari va muddatlari 153

Sh.A.Kuramatova, D.Q.Ibragimova, R.A.Iminchayev

Kungaboqar o'simligiga qo'llanilgan mineral va organik o'g'itlarni uning o'sishi, rivojlanishiga va hosildorligiga ta'siri (Farg'ona viloyati tuproq iqlim sharoitida) 158

Sh.I.Mamatojiyev, M.A.Gazihev

Sabzavot ekinlari nafaqat oziq – ovqat, balki manzara hamdir 164

M.I.Aktamov, M.T.Isag'aliyev, B.M.Qo'chqorov

Sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlarda suvdan oson eruvchi ionlar dinamikasi 168

R.Djurayev

Urushdan keyingi yillarda chorva ozuqasi muammosi 172

R.Djurayev

Chorvachilik va uning sovet davlati xalq xo'jaligida tutgan o'mni 177

ILMIY AXBOROT**D.O.Turdaliyev**

Maslenitsa bayrami Slavyan madaniyatida ma'jusiylik va xristian an'analarining aksi sifatida 181



УО'К:631.461.7: 631.427.1

**JANUBIY FARG'ONA TUPROQLARINING MIKROBIOLOGIK FAOLLIGI VA UNGA
TURLI OMILLARNING TA'SIRI**

**МИКРОБИОЛОГИЧЕСКАЯ АКТИВНОСТЬ ПОЧВ ЮЖНОЙ ФЕРГАНЫ И
ВЛИЯНИЕ НА НЕЕ РАЗЛИЧНЫХ ФАКТОРОВ**

**MICROBIOLOGICAL ACTIVITY OF SOILS OF SOUTHERN FERGANA AND THE
INFLUENCE OF VARIOUS FACTORS ON IT**

Ortikov Tulkin Kuchkarovich¹

¹Samarqand davlat universiteti professori, b.f.n.,

Shodmonov Usmonbek Bahodir o'g'li²

²Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotasiya

Maqolada Janubiy Farg'ona tuproqlarining mikrobiologik faolligi, jumladan mikroorganizmlarning turli taksonomik va fiziologik guruhlari soni va ularni turli omillar ta'sirida o'zgarishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Mikroorganizmlar soni tuproq kesmalarini profilida ustki qatlamlarda yuqori miqdorda bo'lishi va tuproq profili bo'ylab pastki qatlamlarga qarab keskin kamayishi aniqlandi. Tuproqda guminus miqdorini ortishi mikroorganizmlar soniga ijobji ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga mikroorganizmlar soniga tuproqning granulometrik tarkibi ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Mikroorganizmlar sonining ustki qatlamda yuqori darajada bo'lishi ushbu gorizontda mikrobiologik jarayonlarni va tuproq shakilanishini faolligini oshiradi.

Аннотация

В статье приведены данные о микробиологическом активности, в том числе количестве различных таксономических и физиологических групп микроорганизмов и его изменение под влиянием различных факторов. Установлено, что численность микроорганизмов больше в верхних слоях почвы и по профилю почвы сверху вниз резко снижается. Повышение содержания гумуса в почве положительно действует на количество микроорганизмов. Вместе с этим на численность микроорганизмов существенно влияет гранулометрический состав почвы. Повышенное содержание микроорганизмов в верхнем горизонте почвы увеличивает активности микробиологических процессов и формирования почвы в этом горизонте.

Abstract

The article presents data on microbiological activity, including the number of different taxonomic and physiological groups of microorganisms and its change under the influence of various factors. It has been established that the number of microorganisms is higher in the upper soil layers and sharply decreases along the soil profile from top to bottom. An increase in the humus content in the soil has a positive effect on the number of microorganisms. At the same time, the granulometric composition of the soil significantly affects the number of microorganisms. An increased content of microorganisms in the upper soil horizon increases the activity of microbiological processes and soil formation in this horizon.

Kalit so'zlar: tuproq, kesma, genetik gorizont, mikrobiologik faollik, mikroorganizmlar soni, taksonomik guruh, fiziologik guruh, guminus, aerasiya, granulometrik tarkib

Ключевые слова: почва, разрез, генетический горизонт, микробиологическая активность, количество микроорганизмов, таксономическая группа, физиологическая группа, гумус, аэрация, гранулометрический состав

Key words: soil, section, genetic horizon, microbiological activity, number of microorganisms, taxonomic group, physiological group, humus, aeration, granulometric composition

KIRISH

Tuproqning mikrobiologik faolligi tuproq hosil bo'lishi va evolyusiyasida eng muhim rollardan birini o'yinaydi. Tuproqda boradigan jarayonlarning asosiy qismi mikroorganizmlar tomonidan amalga oshiriladi, ya'ni ular mikrobiologik jarayonlar hisoblanadi. Tuproqdagagi organik qoldiglardan guminus hosil bo'lish jarayoni ham, ya'ni gumiifikasiya jarayoni ham mikroorganizmlar ishtirokida

amalga oshadi. Shu bilan birga tuproqda o'simliklar o'zlashtira oladigan harakatchan oziq moddalarni hosil bo'lishi ham mikrobiologik jarayonlar bilan bog'liq. Shuning uchun mikroorganizmlar tuproq unumдорлиги va xossalari shakllanishida katta va almashtirib bo'lmas rol o'yndaydi. Tuproqda mikroorganizmlar faoliyatini boshqarish orqali tuproq unumдорлигини, xossa va rejimlarini shakllantirish mumkin. Shuning uchun tuproq mikrobiologik faolligini o'rganish dolzarb msala hisoblanadi

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT USLUBLARI

Tuproqda mikroorganizmlar juda ko'plab jarayonlarda qatnashib ularni amalga oshishini ta'minlab beradi [1.1-7]. Tuproqlarning mikrobiologik faolligi tuproqda moddalar, energiya va axborotning transformasiyalanishi, migrasiyasi va akkumulyasiyasi aniqlab beradi. Tuproqda mikroorganizmlar massasi va ayniqsa ular tomonidan qayta ishlanadigan o'simlik qoldiqlari massasi o'simliklar haqiqiy qoldiqlari bilan taqqoslanadigan darajada. Bu mikroorganizmlar rolini tuproq hosil bo'lish omili sifatida aniqlab beradi[2.38-42]. Tuproqda mikroorganizmlar soni ko'p omillarga bog'liq ravishda o'zgaradi. Ular tuproq kesmasining profili bo'ylab tepadan pastga qarab keskin pasayadi[3.27-31; 4.1-16]. Bunday qonuniyat mikroorganizmlarning taksonomik guruhlari-bakteriyalar, zamburug'lar va aktinomisetlar sonida ham, fiziologik guruhlari – nitratredusiyentlar, nitrifikatorlar, azotifikatorlar va selluloza parchalovchi mikroorganizmlar sonida ham kuzatiladi[3.27-31]. Tuproqda mikroorganizmlar soni mavsumiy ravishda ham o'zgaradi[5.58-68; 6.64-73]. Rossiyada o'tkazilgan tadqiqotda mikroorganizmlar soni iyun oyida eng yuqori, may oyida o'rtacha va sentyabr oyida eng past ko'rsatkichga ega bo'lgan [5.58-68]. Tuproqda gumus miqdori va gumus zahirasi ortishi bilan mikroorganizmlar soni va xili ortadi, tuproq sho'rланishi va uni ortishi bilan, aksincha, kamayadi[7.27-33; 8.90-93; 9.22-31]. Demak, tuproqdagi mikroorganizmlar soni va faolligiga, dalalar bo'ylab tarqalishiga turli xil omillar turlicha ta'sir qiladi.

Tadqiqotlar ekspedition usulda Janubiy Farg'ona hududida Farg'ona tuproqlarida olib borildi. Buning uchun o'rganilayotgan dalalarda tuproq kesmalari olindi va ularga genetik gorizontlar bo'yicha morfologik jihatdan ta'rif berilib, har bir qatlardan tuproq namunalari olinib ular agrokimyoiy va mikrobiologik jihatdan analiz qilindi. Mikroorganizmlarning taksonomik va fiziologik guruhlari soni maxsus elektiv muhitlarda o'stirish orqali amalga oshirildi. Buning uchun tuproqdan suyultirishlar seriyasi qilinib ushbu suspenziyalardan elektiv oziqa muhitlanga chuqur usulda mikroorganizmlar Petri kosachalariga qattiq muhitga ekildi. Mikroorganizmlar o'stirish uchun termostatga qo'yildi va u yerda o'stirildi. Bunda mikroorganizmlar soni tuproqning genetik gorizontlari bo'yicha alohida o'rganildi va bir gramm tuproqqa nisbatan ular soni hisoblab topildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tuproqning ustki qatlamlarida mikroorganizmlar soni yuqori bo'lishi va tuproq profili bo'ylab yuqorgi qatlamlardan pastki gorizontlarga qarab mikroorganizmlar sonini kamayib borishi kuzatildi. Mikroorganizmlar taksonomik guruhlariдан bakteriyalar va aktinomisetlar soni zamburug'lar soniga nisbatan bir necha pog'ona ustun ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu holat organik azotda yashovchi bakteriyalar bilan solishtirilganda ham, mineral azotda o'sadigan bakteriyalar bilan taqqoslanganda ham kuzatildi. Go'sht-peptonli agar va kraxmal-ammiakli agarda o'sadigan mikroorganizmlar soni bir gramm tuproqda bir necha o'n million donaga teng bo'lgan bo'lsa, zamburug'lar soni bir necha o'n ming dona bilan tavsiflandi. Mikroorganizmlarning fiziologik guruhlariдан azotifikatorlar, nitrifikatorlar, ammonifikatorlar, nitratredusiyentlar, selluloza parchalovchilar kabi mikroorganizmlar soni ham tuproq gorizontlari va dalalar tuprog'iga bog'liq ravishda turlicha miqdorda o'zgardi. Azotifikatorlar, ammonifikatorlar, azotifikatorlar va nitratredusiyentlar soni tuproq suspenziyasining 5-suyultirishidan aniqlanib ular miqdori bir necha millionni tashkil etdi. Tuproq nitrifikatorlar, selluloza parchalovchi bakteriyalar soni yuqoridagi mikroorganizmlar soniga nisbatan bir necha pog'ona past bo'lib ular miqdori bir necha ming dona bilan tavsiflandi. Tuproq kesmasining pastki qatlamlariga tomon zamburug'lar, nitrifikatorlar soni keskin pasaydi va bu mikroorganizmlarni aerasiyaga juda sezgir ekanligi qayd etildi. Mikroorganizmlarning qolgan taksonomik va fiziologik guruhlari soni ham pastki qatlamlarga borib keskin pasayib ketdi. Mikroorganizmlar sonini eng ustki qatlamba yuqori miqdorda bo'lishi ushbu qatlamba o'simlik qoldiqlарини nisbatan eng ko'p darajada bo'lishi va tuproq kislород bilan yaxshi ta'minlanganligi bilan tushuntiriladi. Bunday holatda mikroorganizmlar oziq moddalar, xususan uglerod va azot bilan hamda kislород bilan yaxshi ta'minlangan bo'ladi. Bu esa mikroorganizmlar faoliyatiga va faoligiga

BIOLOGIYA

hamda ko'payishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ushbu ustki gorizontda gumus miqdori eng yuqori, mikroorganizmlar soni eng ko'p, mikrobiologik jarayonlar eng jadal bo'lishi kuzatiladi. Tuproqning yuqorgi qatlamida o'simliklar ildizi ham ko'p miqdorda bo'lib ular ushbu gorizontda faol bo'ladi, bu mikroorganizmlar faolligiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. O'simliklar ildizi va mikroorganizmlar o'rtaida kuchli simbioz kuzatiladi. Pastki gorizontlarga qarab ushbu holatlar susayib boradi.

XULOSA

Shunday qilib, Janubiy Farg'ona tuproqlarida mikroorganizmlar ustki qatlamlarda juda faol bo'ladi va pastki qatlamlarga qarab mikroorganizmlar taksonomik va fiziologik guruhlari soni sezilarli ravishda kamayib boradi. Mikroorganizmlar sonini ortishi, faolligini jadallahishida tuproqning gumus miqdori, undagi organik qoldiqlar miqdori va havo bilan ta'minlanganligi eng muhim rol o'yinaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Савич В.И., Наумов В.Д., Гукалов В.В., Тазин И.И., Каменных Н.Л., Поляков А.М., Арешин А.В. Гумусовое состояние и микробиологическая активность почв избыточного увлажнения // АгроЭкоИнфо: Электронный научно производственный журнал. – 2022. – № 3. -С.1-7
- Савич В.И., Мосина Л.В., Норовсурэн Ж., Сидоренко О.Д., Аникина Д.С. Микробиологическая активность почв как фактор почвообразования// Международный сельскохозяйственный журнал, 2019. №1 (367). -С.38-42
- Ортиков Т.К., Артикова Х.Т., Умаров О.Р. Микробиологическая активность лугово-аллювиальной почвы Бухарского оазиса в зависимости от типа и степени засоления // Научное обозрение. Биологические науки. №3. 2021. -С.27-31
- Козлова А.А., Макарова А.П. Почвенно-микробиологическая характеристика целинных и залежных серых лесных почв Приангарья. Сформированных в условиях бугристо-западинного рельефа // Электронное периодическое издание ЮФУ «Живые и биокосные системы», №7, 2014. -С.1-16
- Цандекова О.Л., Макеева Н.А.Ферментативная и микробиологическая активность почв под влиянием *Acer negundo* L. //Вестник Оренбургского государственного педагогического университета. Электронный научный журнал (online). 2022. №3 (43). -С.58-68
- Минькина Е.А., Куприченков М.Т. Сезонная динамика биологической активности в аgro- и биогенных почвах Ставропольского края // Таврический вестник аграрной науки, №2 (14), 2018. -С.64-73
- Хаджимуродова Н.Р., Раупова Н.Б. Микробиологическая активность староорошаемых и новоорошаемых лугово-аллювиальных почв // Бюллетень науки и практики. Т.5. №3. 2019. -С.27-33
- Ходжимуродова Н.Р., Хожиев С.С. Некоторые особенности и микробиологическая активность лугово-аллювиальных почв Бухарского оазиса // Вестник Хорезмской академии Маймуна. Хива. 2020. №1. -С.90-93
- Ходжимуродова Н.Р., Хакимова Н.Х., Тагаева М.В., Камилов Б.С. Биологическая активность орошаемых лугово-аллювиальных почв в зависимости от степени засоленности // Научное обозрение. Биологические науки. 2021. №1. -С.22-31